JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 26-mart | 76-3-52-Q/25 | Paxtakor tuman hokimligi

Yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2024-yil 19- yanvardagi “Yo‘l harakati to‘g‘risida” O‘RQ-900-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta′minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli, 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlan to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlari ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta′minlash, transportlar tirbandligini oldini olish maqsadida, tuman ichki ishlar bo‘limining 2025-yil 11-yanvardagi 41/-53-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 21^1-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman ichki ishlar bo‘limining 2025-yil 11-yanvardagi 41/-53-sonli xati inobatga olinsin.

2. Quyidagi:

- 4R-32 “Jizzax-Gagarin” avtomobil yo‘lining Paxtakor tumani “Do‘stlik” mahallasi hududidan o‘tgan yo‘lining 33-34 km. oralig‘ida qurilgan parallel ichki yo‘lga bir tomonlama harakatlanish (o‘ng qo‘lga) ya’ni “Do‘stlik” mahallasiga kirish joyidagi qismiga 3.1 “Kirish taqiqlanadi” va 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish DM (S.Erjigitov)ga yangi o‘rnatilayotgan yo‘l belgilarining amaldagi davlat namunasi (davlat standarti) asosida bo‘lishini qat′iy nazoratga olish topshirilsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Y.Akaboyev) va IIB YHXB (G‘.Erbekov)larga piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O.Amanov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Ashurov**